



**NOGIRONLIGI BO'LGAN BOLALARGA
NISBATAN JAMIYATNING FIKRLARINI
O'ZGARTIRISH** Almardanovna Zulfizar

Beknazarovna,

*Xalqaro innovatsion universiteti "Pedagogika"
kafedrasi o'qituvchisi*

Tirkasheva Zulayho Sodiq qizi,

*Xalqaro innovatsion universiteti "Pedagogika"
kafedrasi o'qituvchisi*



**CHANGING SOCIETY'S ATTITUDES
TOWARDS CHILDREN WITH DISABILITIES**

Zulfizar Beknazarovna Almardanova,

*Lecturer, Department of Pedagogy International
Innovative University*

Tirkasheva Zulayho Sadiqovna,

*Teacher of the Department of "Pedagogy" of the
International Innovation University*

E-mail:

almardanovazulfizar@gmail.com

Orcid: 0009-0006-2434-8386

Doi:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18531725>

**ИЗМЕНЕНИЕ ОТНОШЕНИЯ ОБЩЕСТВА К
ДЕТЯМ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ**

Алмарданова Зулфизар Бекназаровна,

*преподаватель, кафедра "Педагогика"
Международного инновационного университета*

Тиркашева Зулайхо Садиковна,

*Преподаватель кафедры "Педагогика"
Международного инновационного университета*



E-mail:

zulayhotirkasheva85@gmail.com

Orcid: 0009-0006-2434-8386

Doi:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18531725>

Annotatsiya: Ushbu maqolada nogironligi bo'lgan bolalarga jamiyatning qarashlari, inklyuziv ta'limni rivojlanish jarayonida xalqaro huquqiy hujjatlar, nogironligi bo'lgan bolalarga nisbatan jamiyatning fikrlarini o'zgartirish to'g'risida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Nogiron, nogironligi bo'lgan bolalar, jamiyat, inklyuziv ta'lim, xalqaro huquqiy hujjatlar, nogironligi bo'lgan bolalarga nisbatan jamiyatning fikrlari..

Аннотация: В данной статье представлена информация о взглядах общества на детей с инвалидностью, международных правовых инструментах в процессе развития инклюзивного образования и об изменении взглядов общества на детей с инвалидностью.

Ключевые слова: Инвалиды, дети с инвалидностью, общество, инклюзивное образование, международные правовые инструменты, взгляды общества на детей с инвалидностью.



Abstract: *This article provides information on society's views on children with disabilities, international legal instruments in the process of developing inclusive education, and changing society's views on children with disabilities.*

Keywords: *Disabled, children with disabilities, society, inclusive education, international legal instruments, society's views on children with disabilities.*

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Prezident tomonidan 13-oktabr 2020- yilda “Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim - tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida” gi PQ4860-son qarori, 2020-2025-yillarda Xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi va 2020-2021 yillarda uni amalga oshirish bo'yicha “Yo'l xaritasi”da, Prezident Shavkat Mirziyoevning BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashi 46-sessiyasidagi nutqida strategik yo'nalishlar, jumladan, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Butun dunyoda qariyb 1 milliardga yaqin nogironligi bo'lgan shaxslar tashkil etadi va bu nihoyatda ahamiyatli tashabbus ekaniga amin bo'lamiz.

Nogironligi bo'lgan bolalarga nisbatan jamiyat fikrini o'zgartirish uchun inklyuziv ta'limni rivojlantirish, nogironlik haqidagi noto'g'ri tushunchalarni bartaraf etish, kamsitishga qarshi qonunlarni kuchaytirish va ommaviy targ'ibot ishlari orqali amalga oshiriladi; bu jarayon nogiron bolalarning jamiyatga to'liq integratsiyasi, teng huquqliligi va imkoniyatlarining kengayishini ta'minlaydi, ularga nisbatan hamdardlik va hurmatni kuchaytiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Nogironning ijtimoiy holati muammosi yaqinda juda ko'p sonli mahalliy tadqiqotchilarning e'tiborini jalb qildi (V.M. Astapov, O.I. Lebedinskaya, B.Yu.Shapiro, E.F. Achildieva, A.A. Baranov, R.K. Ignatieva, L.K. Grachev, TA Dobrovolskaya, IP Katkova, VV Kuznetsova, SS Kuchinskiy, SP Pyapkov, GG Silaste, NB Shabalina, I. A. Shames, S.P. Shevchuk, Yu.G. Ellanskiy). Shunga qaramay, ushbu muammoning yechimi hali ham ko'proq tahlil va tushunishni talab qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Nogironligi bo'lgan bolalar (bola) —jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari tufayli hayotiy faoliyati cheklanganligi munosabati bilan davlat va jamiyat tomonidan ijtimoiy yordam ko'rsatilishiga hamda o'z huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishiga muhtoj o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslar hisoblanadi.



Nogironligi bo'lgan bolalarga jamiyatning qarashlari

- kamsitish, ajratib qo'yish;
- sog'lom farzandlarini nogironlardan olib qochish;
- nogiron bolalar uyda ta'lim olishi zarur, ular jamiyat orasida yurishi kerak emas;
- ular mehnatga layoqatsiz;
- rahmdillik bilan qarash, achinish;
- imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim olishga qobiliyatsiz, ijtimoiy hayotga moslasha olmaydi.

Inklyuziv ta'lim: Imkoniyati cheklangan bolalarning o'z sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda ta'lim-tarbiya olishi, oila muhitida yashashi va ilk yoshdan moslashishni ko'zda tutadigan ta'lim tizimidir.

Inklyuziv ta'limning rivojlanishi nogironligi bo'lgan bolalarga ta'lim olishning keng imkoniyatlarini beradi:

- nogironligi bo'lmagan bolalar va shaxslar nogironlik muammolarini tushunishadi;
- nogironligi bor shaxslarning jamiyatdan izolyatsiyasi kamayadi;
- natijada nogironligi bo'lgan shaxslar jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida namoyon bo'ladi va jamiyat rivojlanishiga o'z hissasini qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Inklyuziv ta'limni rivojlanish jarayonida xalqaro huquqiy hujjatlarning o'рни beqiyosdir:

- 1948 yilda qabul qilingan inson huquqlari umujahon deklaratsiyasidir. Mazkur deklaratsiyada qayd etilishicha: "Har bir inson tengdir";
- 1959 yilda qabul qilingan bola huquqlari deklaratsiyasida qayd etilishicha, har bir bola jamiyatning to'laqon a'zosi bo'lishi uchun, shuningdek, rivojlanishi uchun ta'lim olish huquqiga egadir;
- 1960 yilda qabul qilingan "Ta'lim olishda kamsitishga qarshi kurashish konvensiyasi"dir. Mazkur konvensiyada ta'lim olish jarayonida kamsitilishning har bir shakli taqiqlangan;
- BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1969 yilda qabul qilingan "Ijtimoiy taraqqiyot va rivojlanish deklaratsiyasi"da aqliy va jismoniy nuqsonlarga ega bo'lgan insonlarning mehnat qobiliyatini tiklash haqida aytilgan;
- oxirgi xalqaro hujjatlardan biri bu BMTning "Nogironlar huquqlari konvensiyasi" hisoblanadi. Mazkur konvensiya 2006 yil 13 dekabr kuni qabul qilingan. 24-moddasida nogironlarning ta'lim olish huquqlari belgilangan. Ushbu



moddada aytilishicha, nogironlarga ta'lim olish borasida teng imkoniyatlar yaratish, ularni kamsitmaslik uchun davlatlar inklyuziv ta'lim tizimini shakllantirishlari lozim.

Har bir inson ta'lim olish, barcha qatori voyaga yetib, jamiyatda erkin yashash huquqiga ega.

XULOSA

Mamlakatimizda inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan hozirgikundagi muhim hujjatlardan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev tomonidan qabul qilingan "Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash" farmoni hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim rivojlantirish borasida mazkur qarorda quyidagilarga e'tibor qaratilgan:

- imkoniyati cheklangan bolalar o'qiydigan binolarga doir talablarni ishlab chiqilishi;

- imkoniyati cheklangan bolalar tahsil olayotgan maktablarni kerakli adabiyotlar va metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash;

- imkoniyati cheklangan bolalarni ta'lim olish uchun inklyuziv ta'lim tizimini yaratish;

- imkoniyati cheklangan bolalar o'qiyotgan maktablarni maxsus vositalar, ko'targich (pandus)lar va xokazolar bilan ta'minlash;

- bu borada faoliyat olib boruvchi kadrlar (pedagog-defektolog, imkoniyati cheklangan bolalarga psixologik va pedagogik ko'mak beradigan mutaxassislar) bilan ta'minlash;

- jamoatchilik orasida imkoniyati cheklangan bolalarni ta'lim olish huquqlari to'g'risida tushuntirish ishlarini olib borish.

Nogironligi bo'lgan bolalar ham alohida – uylaridan chetda emas, balki barcha bolalar singari - ota-onalari bag'rida, uylariga yaqin maktablarda ta'lim olish huquqlariga egadirlar!

Inklyuziv ta'limning imkoniyatlari:

- inklyuziv ta'lim ajratish iskanjasidan qutulishga imkon beradi;

- maxsus ehtiyojli bolaning o'z oilasi va jamiyat davrasida bo'lishiga imkon beradi;

- barcha uchun ta'lim sifatini yaxshilaydi;

- kamsitishlarning oldini oladi;

- inklyuziv ta'lim jamiyatdagi inklyuzivlikka olib keladi.

Inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlash orqali biz:

- jamiyatda ijobiy munosabatni ishlab chiqish;



- ilk yoshdan aralashuv;
- inklyuziv ta'lim muhitini rivojlantirish;
- mos siyosatni ishlab chiqishga ko'maklashish;
- ijobiy namuna bo'la oladigan insonlar obrazini yaratish.

Nogironligi bo'lgan bolalarga nisbatan jamiyatning fikrlarini o'zgartirish orqali biz:

- imkoniyati cheklangan insonlarni jamiyat hayotiga o'z ulushini qo'shishga imkon beramiz;
- teng huquqlilik asosida imkoniyati cheklangan va sog'lom insonlarda ijobiy fazilatlarni shakllanishiga ko'maklashamiz;
- teng huquqlilik asosida imkoniyati cheklangan va sog'lom insonlarda ijobiy fazilatlarni shakllanishiga ko'maklashamiz;
- imkoniyati cheklangan insonlar va sog'lom tengdoshlari bir-biridan o'rnak oladigan jihatlarini shakllantiramiz Imkoniyati cheklangan insonlar jamoa hayotiga erta yoshdan moslashish imkonini beramiz.

Jamiyat fikrini o'zgartirish yo'llari:

1. **Inklyuziv ta'lim:** Nogiron bolalarning oddiy maktablarda, nogiron bo'lmagan tengdoshlari bilan birga o'qishini ta'minlash, bu esa o'zaro tushunish va hamkorlikni rivojlantiradi. Maktablarda nogironlikka qaratilgan kamsitishlarni yo'q qilish, masalan, bir partada o'tirmaslik yoki birga o'ynamaslik kabi holatlarga barham berish.
2. **Targ'ibot va ma'lumotlar:** Media, ijtimoiy tarmoqlar va ta'lim muassasalari orqali nogironlikning turli turlari, ularning sabablari va nogiron bolalarning qobiliyatlari haqida to'g'ri ma'lumotlar tarqatish. Nogiron bolalar hayotining ijobiy namunalarini ko'rsatish, ularning jamiyatdagi faol ishtirokini namoyish etish.
3. **Qonuniy himoya va huquqlar:** Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qiluvchi qonunlarni yanada kuchaytirish va ijrosini ta'minlash. Har qanday kamsitish, istisno qilish va cheklashlarni qonuniy jazolash.
4. **Jamoatchilik ishtiroki:** Nogironligi bo'lgan bolalar va ularning ota-onalari uchun qo'llab-quvvatlash guruhlarini tashkil etish. Jamoatchilikni nogironlik masalalarida faol ishtirok etishga chaqirish, tadbirlar, seminarlar o'tkazish.
5. **Yetarli sharoitlar yaratish:** Nogiron bolalar uchun jamoat joylarida (maktab, bog'cha, ko'chalar) moslashuvchan sharoitlar (rampa, maxsus jihozlar) yaratish.



Bu chora-tadbirlar jamiyatda nogironligi bo'lgan bolalarga nisbatan “begona” degan qarashdan “bizning tengdoshimiz” degan qarashga o'tishga yordam beradi.

Har bir bola o'z uyining oldida sifatli ta'lim olish huquqiga ega!!!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shomaxmudova R. “Maxsus va inklyuziv ta'lim” /Toshkent “[Chashmaprint” 2011.
2. Отношение общества к детям с ограниченными возможностями здоровья и детям-инвалидам. – М.: Фонд поддержки детей, находящихся в трудной жизненной ситуации, 2017.–72 с., ил. <https://www.hse.ru/mirror/pubs/share/206979080>
3. Мамедов К.К, Шоумаров Г.Б. Акли заиф болалар психологияси-Т.: Ўқитувчи, 1994
4. Рахмонова В.С. Махсус педагогика. Т.: Адабиёт ва санъат, 2005.
5. Специальная психология. Под ред. В.И.Лубовского. - М.: “Академия”, 2005.